



## PHYSICAL EDUCATION IN THE HEALTH OF PRESCHOOL CHILDREN IMPORTANCE

Rajabaliyeva Madina Abbasali.

Tashkent State University named after Nizami, pedagogy university Termez branch, The direction of preschool education, 2nd year student.

### **Annotation:**

This article discusses the role of physical education in the health of preschool children.

**Keywords:** Individual, dynamic, structural, rational, objective, subjective functional.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida va soğligida jismoniy tarbiya faoliyatining ahamiyati benihoya katta. Bu faoliyat bolaning soğligi va salomatligida, jismonan ruhan tetik bòlishida, tanasi qad-qomatining tògri rivojlanishida, nafas olish organlarining faolligida, tana funksiyalarini yaxshilashda, organizmning harakatchanlik ishchanlik qobiliyatlarini oshirishda, bolani baquvvat, epchil chaqqon bòlishida har tomonlama rivojlanishida öz hatti harakatlarini yaxshi bajara olishida, jismoniy tarbiya va jimoniy mashqlarning òrni beqiyos.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy mashqlarni olib borishda bolaning imkoniyatlari umumiyligi xususiyatlari, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejada belgilangan holatda haftada bir yoki ikki marta olib boriladi, chunki maktabgcha yoshdagi bolaninig organizmi chiniqmagan va nozik bòladi, shuning uchun ham mashqlar ketma-ketligiga ham alohida ahamiyar berib boriladi, ya'ni mashqlar osondan murakkabga qarab özgarib boradi. Muskullar kuch quvvatini kòp sarf qiladigan mashqlarni 3-4 yoshli bolalarda qòllab bolmaydi, ogir mashqlar bola organizmida jismoniy zòriqish holatini yuzaga keltiradi. Bunday zòriqish bolaning aqliy rivojlanish, jismoniy rivojlanish dinamikasida ham öz salbiy ta'sirini kòrsatadi. Shu sababli bolalarga ularning yoshlariga mos mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiq boladi. Kichik yoshdagi bolalar uchun yurish, qisqa masofalarga yugurish kabi mashqlarni bajartirish mumkin. Mashqlarni olib borishda serharakat mashqlar strukturasidan foydalanish, bola organizmining harakatchanligiga yordam beradi.

Katta guruh bolalari uchun ham serharakat mashqlarni kòproq bajartirish, egilish bukilish qòl va oyoq muskullari bilan boqliq mashqlar olib borish.



Mashqlarni bajartirib borish jarayonida bolani kuzatish metodidan foydalanim uning obyektiv va subyektiv olamidagi özgarishlarni kuzatib borish maqsadga muvofiq boladi. Jismoniy mashqlar bolaning kayfiyatiga psixologiyasiga, fiziologiyasiga skelet muskullarining to'g'ri rivojlanishiga, organizmining umumiy holatiga qanday ta'sir korsatayotganligini hisobga olish lozim. Bola mashqlarni bajarishda qiziqishi ortishiga atrof- muhit ya'ni bolaning mashg'ulot o'tkaziladigan maxsus joyi, yoki maydonchasi ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu maydoncha doimiy nazorat markazida turishi, gigienik talablarga javob berishi, barcha guruh bolalari uchun mos keladigan jihozlar bilan jihozlanshi, ushbu jihozlarning rangi, shakli, joylashuvi bolaga mos kelishi, jihozlarni ratsional tarda joylashtirish ketma-ketligiga alohida e'tibor berish ularni toza va ozoda saqlash, mustahkamligiga ahamiyat qaratish, bola jihozlardan foydalangan paytda bola uchun xavfsiz bolishi unga hech qanday ziyon zahmat yetkazmasligini u jihozlardan foydalangan paytda bolaga kayfiyat berishini ham e'tiborga olish zarur. Mashg'ulot o'tkazadigan joyni ham faslga qarab almashtirib turish tavsiya etiladi. Qish faslida mashg'ulotlar xonalarda o'tkazilishi, xonalarning eshik va derazalari ochiq holatda boliishi zarur, bu holat bolaga ijobiy ta'sir korsatadi. Bizning yurtimiz ob havosi juda ham qulay hisoblanadi, issiq kunlar kopligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham mashg'ulotlarni koproq toza havoda olib borish tavsiya etiladi. Olimlar olib borgan tadqiqotlar shuni korsatadi, ochiq havoda olib boriladigan mashg'ulotlar bola organizmining funksional takomillashuvida, ahamiyatga ega bolib bolada gripp, shamollah immunitet pastligi kabi holatlarning ham oldini oladi. Ochiq havoda olib boriladigan mashg'ulotlar orqali bola tanasi ham quyosh nurida chiniqadi va bolada chidamlilik hosil boliadi. Mashqlarni albatta muayyan rejim va belgilangan vaqtida ahamiyar bergen holda olib boriladi. Olib boriladigan mashg'ulotlar bolaning harakat malakasini shakllantirish bilan birga ularda tezkorlik, quvnoqlik, chaqqonlik, epchillik kabi xususiyatlarini hamda ularda oz tanasini boshqarish kònifikmasini ham shakllantirib boradi, chunki ular mashg'ulot davomida birinchi bolib bosh, undan keyin boyin yelkani qanday boshqarish ketma ketligini organib boradilar undan keyin gavda uchun mashqlar olib boriladi, bu esa bolada oz tanasini boshqarish deyiladi. Mashqlarni ozlashtirgan bolalar istalgan mashqlarni bemalol bajara oladilar, chunki bolada shu mashqlarni bajarish uchun kònikma yetarli boliadi va tanasi ham egiluvchanlikka, bukiluvchanlikka tayyor boliad. Bugungi kunda bolalar jismoniy tarbiyasi



kundan- kunga rivojlanib bormoqda va bola tarbiyasining har xil jahbalarini ham qamrab olmoqda va yangi bilimlar bilan ham boyib bormoqda.

Jismoniy tarbiya faoliyati ham köplab fanlar bilan ham bogliqlikda olib borilmoqda, bu fanlar sport psixologiyasi, bolalar psixologiyasi kabi fanlar bilan bogliq bu esa bolani har tomonlama rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bolsam, ertamiz egalari bølgan bolalarni har tmonlama soglom, baquvvat, epchil, kuchli, mehribon, tashabbuskor, quvnoq kayfiyatli, öz ishini mustaqil bajaradigan qilib tarbiyalasha, jismoniy tarbiya va jismoniy mashqlar rolini markaziy örinda qøyish, bolalar kundalik rejimida jismoniy mashqlar rolini oshirish, jismoniy mashqlar bilan yaqindan tanishtirib borish, jismoniy tarbiya nazariyasini chuqurroq orgatib borish va amaliyotda qöllash asosiy vazifadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilk qadam maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat oquv dasturi.T; 2018-yil.
2. Maktabgacha va boshlangich ta'limda jismoniy tarbiya nazariysi va uslubiyati.T."Özkitobsavdonashriyoti", 2020-232 b.
3. Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariysi jurnal.
4. Özbekiston respublikasi prezidentinig "maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari tögrisidagi PQ-3955-som qarori.2018-yil .
5. Usmonxòjayev T.S Islomova S.T. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya T: "Ilm Ziyo"nash. 2006.